

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi**

 **Z. Sidikov**

2025-yil “___”-oktabr

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining navbatdan tashqari majlisi
B A Y O N N O M A S I**

2025-yil 14-oktabr

___ -son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **Z.Sidikov** – O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi

Ishtirokchilar: O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi a‘zolari

KUN TARTIBI:

**Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligini ko‘rib chiqish,
amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar va yangi tahrirdagi nizomini
tasdiqlash haqida**

(Z.Sidikov, E.Basitxanova, S.Mamanov, X.Shayxova, N.Muratova, G.Usmonova, S.Begaliev, Z.Sidikov)

Majlis raisi Z.Sidikov yig‘ilishni kirish so‘zi bilan ochib, kun tartibi va Sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 9-sentabrdagi 282-sonli byrug‘i, Jamoatchilik kengashi tarkibi, uning vazifa va funksiyalari bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Shuningdek, kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash tomonidan joriy yilda amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar ko‘rib chiqildi. Xususan, kengashning 2025 yildagi faoliyati, ish rejalari, yangi tahrirdagi Nizomi va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qator vazifalar kengash a‘zolari tomonidan muhokama qilindi.

Kengash a‘zosi E.Basitxanova Sog‘liqni saqlash faoliyat sohalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va islohotlar natijadorligini tahlil qilib, asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish zarurligini takidhladi.

Kengash a‘zosi S.Mamanov Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va “Yo‘l xarita”larining

amalg oshirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar, shuningdek, ularning natijalari haqida ma'lumot berdi.

Kengash a'zosi X.Shayxova Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari etib sailandi.

Kengash a'zosi N.Muratova va G.Usmonovalar sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ib qilish bo'yicha rolik va videomateriallar tayyorlash bo'yicha tanlov e'lon qilish, kutilgan samara berishini ta'kidladi.

Kengash a'zosi S.Begaliev tibbiyotda ilmiy faoliyatni rag'batlantirish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirish fundamental va amaliy tadqiqotlar haqida o'z fikrlarini bildirdi.

Kengash a'zolari qarorlar qabul qilish va qonun ustuvorligi hamda adolatni mustahkamlash, tibbiyot xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishda jamoatchilik ishtirokining muhimligini ta'kidladilar.

Joriy yilning o'tgan davri uchun faoliyatning dastlabki yakunlarini sarhisob qilib, kelgusida bajariladigan asosiy yo'nalishlarni belgilab oldilar. Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ochiq muloqotni tashkil etish va o'tkazishni lozim deb topildi.

Ishtirokchilar O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar, ijobiy natijalar haqida o'rtoqlashdi va aholiga ularning mazmun-mohiyatini Kengash a'zolari tomonidan tushuntirish ishlarini tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Jamoatchilik kengashining yangi tahrirdagi Nizomi asos sifatida qabul qiindi.

Raislik etuvchi masalaga yakun yasadi va yuklatilgan vazifa va funksiyalar hamda topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini bajarish maqsadida, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi raisi Z.Sidikov va a'zolari E.Basitxanova, S.Mamanov, X.Shayxova, N. Muratova, G.Usmonova, S.Begalievlarning kun tartibidagi masala yuzasidan tegishliligi bo'yicha kirish so'zi, taqdimoti va hisoboti, shuningdek, takliflari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risida yangi tahrirdagi nizomi asos sifatida qabul qilinsin.

3. Jamoatchilik kengashi a'zolari:

bir hafta muddatda Kengashning asosiy vazifalari yuzasidan sog'liqni saqlash vazirligi tizimi bo'yicha tahlil qilsin va mavjud muammolar hamda ularning yechimiga qaratilgan dastlabki takliflarni Kengash raisiga taqdim etsin;

kengash faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida maqolalar

e'lon qilsin va chiqishlarni qilsin.

4. Jamoatchilik kengashi kotibi (S.Mamanov):

bir hafta muddatda Kengashning ish rejasi va Nizomini tegishliligi bo'yicha tasdiqlash uchun kiritsin;

uch kun muddatda Kengash a'zolari ro'yxati, telefon raqami, pochta va elektron manzillarini Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

5. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Kengash kotibi

S. Mamanov